

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**ZAYNIYEVA MADINA XURSHIDJON QIZI**

**GLOBAL SINTAKTIK STRUKTURALAR VA ULARDA  
PREDIKATIVLIKNING IFODALANISHI  
(ingliz va o'zbek tillari misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, choq'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

UO'K: 811.111'367+811.512.133'367

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Zayniyeva Madina Xurshidjon qizi**

Global sintaktik strukturalar va ularda predikativlikning ifodalanishi  
(ingliz va o'zbek tillari misolida) ..... 3

**Зайниева Мадина Хуршиджон кизи**

Глобальные синтаксические структуры и выражение предикативности в них  
(на примере английского и узбекского языков) ..... 25

**Zaynieva Madina Khurshidjon kizi**

Global syntactic structures and representation of predicativeness in them  
(using the example of English and Uzbek languages) ..... 49

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 53

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**ZAYNIYEVA MADINA XURSHIDJON QIZI**

**GLOBAL SINTAKTIK STRUKTURALAR VA ULARDA  
PREDIKATIVLIKNING IFODALANISHI  
(ingliz va o'zbek tillari misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PHD/Fil2247 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdchi.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot ta'lim tarmog'ining (www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Turniyozov Ne'mat Qayumovich**

filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Sulaymonova Nilufar Jabbarovna**

filologiya fanlari doktori, professor

**Ziyayev Avaz Ixtiyorovich**

filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "5" Sentyabr soat 10<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks (99878) 210-00-18 ; e-mail: info@samdchi.ru).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (64936 raqami bilan ro'yxatga olingan.) Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "15" avgust kunida tarqatildi.  
(2025-yil "15" avgust daqi 31<sup>4</sup> raqamli reyestr bayonnomasi).



**N.Z. Nasrullayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**O'.O'. Qo'ldoshev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**D.A. Kiselyov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida global sintaktik strukturalar shakllanishi va predikativlik tahlilini lingvistik qonuniyat asosida uning nutq bilan bogʻliq muammolarini fan taraqqiyotining zamonaviy yutuqlaridan foydalangan holda amaliyotga tatbiq etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda. Xususan, lisoniy birliklarining aktuallashuvi, ularning nutqiy semantikasi, sintaktikasi va kommunikativ xususiyatlari formal-struktur hamda mazmuniy sintaktik masalalari tobora dolzarblik kasb etmoqda. Buning sababi pragmalingsvistika, kognitiv lingvistika, neyrolingsvistika, psixolingsvistika singari sohalarining rivojlanayotganidir. Global sintaktik strukturalarning shakllanishi va ulardagi predikativlikning tahlili ushbu sohalarining rivojida erishilgan yutuqlar sifatida qayd etilmoqda hamda buning amaliyotdagi tatbiqiga zarurat ortib bormoqda. Bu boradagi yangiliklarga ehtiyojning kuchayishi global sintaktik struktura va uning kommunikativ muammolarining hal qilinishi tilshunoslikning oldidagi dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda.

Dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida tilshunoslikda ilmiy paradigmalarning oʻzgarishi, globallashuv davrida nutq masalalariga nafaqat madaniy jihatdan, balki uning fundamental muammolariga nazariy yondashish lozim boʻlgan tadqiqotlar kun tartibiga qoʻyilmoqda. Tilga jamiyatning millatlararo va madaniyatlararo muloqot shakli sifatida qaralishi tobora keng tus olib borayotgan ayni davrda unga xos boʻlgan borliqning nutqdagi ifodasi, nutqning insonda namoyon boʻlishi masalalariga zamonaviy tilshunoslik prizmasi orqali nazar tashlash hamda uning masalalariga ushbu yondashuv orqali yechim topish kechiktirib boʻlmas vazifalar qatoridan oʻrin egalladi. Bunda matn va uning insoniyatning zamonaviy dunyodagi muloqoti, kommunikativ maqsadlaridagi masalalarining yoritilishi fan oldidagi zaruratga aylanmoqda.

Mamlakatimizda real hayot va fan integratsiyasi keskin rivojlanayotgan bugungi kunda Oʻzbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishning bosh omillari belgilanmoqda. “Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim Uygʻonish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun “Yangi Oʻzbekiston” va “Uchinchi Renessans” soʻzlari hayotimizda oʻzaro uygʻun va hamohang boʻlib yangramoqda, xalqimizni ulugʻ maqsadlar sari ruhlantirmoqda”<sup>1</sup>. Buning isboti ilm-fan va jamiyatimizning ijtimoiy, iqtisodiy madaniy hamda boshqa barcha sohalarining yutuqlarida namoyon boʻlyapti. Shunga asosanib, lingvistikada, zarurat yuqori boʻlgan tadqiqotlar qatorida, jumladan, global sintaktik strukturalarning shakllanishi va ularning predikativligi yuzasidan oʻzbek tilshunosligida tom maʼnodagi nazariy va amaliy tadqiqotlar yetarlicha olib borilmaganligi ushbu mavzuning zaruratini belgilaydi. Mazkur tadqiqot global sintaktik strukturalar shakllanishi va ulardagi predikativlik tahlili, jahon

<sup>1</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi Oʻzbekiston” gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariга javoblari. “Yangi Oʻzbekiston demokratik uzgariشلar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga айланmoqda”, [https://uza.uz/uz/posts/yangi\\_293336](https://uza.uz/uz/posts/yangi_293336). 17.08.2021.

tilshunosligining ajralmas qismi bo'lgan ingliz va o'zbek tillari materialida qiyosiy aspektda o'rganishga bag'ishlanganligi bilan ham dolzarblik kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-maydagi 292-son "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy tashkilotlar faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 11-avgustdagi "Ta'lim muassasalarida chet tillarni o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 610-son Qarori, 2018-yil 10-oktabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarini o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash to'g'risida"gi 816-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining: I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishida innovatsion g'oyalar tizimini shakillantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahon tilshunosligida muammoli va munozarali bo'lgan masalalar qatorida matn sintaktikasi va semantikasi ham katta o'rin egallaydi. Global sintaktik strukturalar shakllanishi va predikativlik tahlilining tilshunoslikda nutq tarkibidagi o'rni va matnga xos hodisa sifatida formal-struktur, semantik-sintaktik va funksional jihatlari tilshunoslardan L.Blumfeld, T.A. van Deyk, E. Kurilovich, Ch. Xokket, H. Paul, N. Xomskiy, K.Gauzenblas va boshqa ko'plab olimlarning tadqiqot ishlarida yoritilgan<sup>2</sup>.

<sup>2</sup> Qarang: Блумфилд Л. Язык. – М., 2002. – 580 с.; Ван Дейк Т.А. Язык. Познание. Коммуникация. – М.: Издательство: БГК им. И. А. Бодуэна де Куртенэ, 2000. – 308 с.; Kurilowicz J. Dérivation lexical et dérivation syntaxique. – Paris: BSL, 1936, – P.122.; Hockett Ch. A course in modern linguistics. – New York, 1958. Published online by Cambridge University Press: 2016. – 660 p.; Paul H. Prinzipien der Sprachgeschichte. – Tubingen: Niemeyer, 1995. Digitized: 2009. – S.381.; Chomsky N. Language and Mind. –Cambridge University Press. The Edinburgh Building, Cambridge, UK., 2006, – 209 p.; Hausenblas K. Vystavba jazykovych projem a styl. – Praha, 1972. – 244 p.

Sintaktik strukturalarning tarkibi va ularning derivatsiyasi bilan bog'liq masalalar, nutq sathidagi semantik belgilar, xususan, predikativlik tadqiqi V.G.Admoni, O.S. Axmanova, E. Benvenist, E.M. Beregovskaya, N.S. Valgina, Y.V. Vannikov, L.M. Vasilev, V.V. Vinogradov, I.R. Galperin, A.N. Gvozdev, E.V. Guliga, N.K. Dmitriev, O. Espersen, V.A. Zveginsev, G.A. Zolotova, V.B.Kasevich, S.D. Katsnelson, K. Kojevnikova, A.P. Komarov, A.N. Kononov, I.N. Kruchinina, E.S. Kubryakova, E. Kurilovich, V.A. Kuxarenko, T.P. Lomtev, M.V. Lyapon, E.T. Marchenko, G.G. Moskalchuk, L.N. Murzin, N.L. Mishkina, T.M. Nikolaeva, M.N. Peterson, N.V. Petrova, A.M. Peshkovskiy, E.A. Popova, G.G. Pochepsov, N.N. Prokopovich, I.P. Raspopov, E.A. Referovskaya, V.V.Reshetov, A.G. Rudnev, G.Y. Solganik, V.M. Solnsev, Y.S. Stepanov, V.S.Xrakovskiy, M.B. Xrapchenko, N.Y. Shvedova, E.N. Shiryayev kabi olimlarning asarlarida semantik-sintaktik jihatlari qiyosiy chog'ishtirish, sistem-struktur paradigma asosida tahlil qilingan<sup>3</sup>.

<sup>3</sup> Qarang: Адмони В.Г. Синтаксис теории. 2003. – 168 с.; Бенвенист Э. Общя лингвистика. – М.: УРСС, 2002. – 448 с.; Береговская Э.М. Очерки по экспрессивному синтаксису. – М., 2004. – 208 с.; Семенова И.В. Дериваты союза ЕСЛИ (на материале наиболее частотных служебных образований, возникших на базе ЕСЛИ): Автореф. дис. канд. филол. наук – Владивосток, 2004. – 20 с.; Валгина Н.С. Современный русский язык. Синтаксис. – М., 2003. – С. 343-358.; Ванников Ю.В. Синтаксис речи и синтаксические особенности русской речи. – М.: OZON.ru, 2009. – 296 с.; Васильев Л.М. Современная лингвистическая семантика. – 2-е изд. – М.: Высшая школа, 2005. – 175 с.; Вендина Т.И. Словообразование как источник реконструкции языкового сознания // Вопросы языкознания, № 4, 2002. – С. 42-74; Виноградов В.В. Избранные труды. Исследование по русской грамматике. 4-е изд. – М.: Рус.яз., 2001. – 720 с.; Гвоздев А.Н. Современный русский литературный язык. Часть II. Синтаксис. – URSS, 2022. – 352 с.; Гулыга Е.В. Теория сложноподчинённого предложения в современном немецком языке. – М.: Высшая школа, 1971. – 206 с.; Дмитриев Н.К. Строй тюркских языков. – М.: Изд. Восточной литературы, 1962. – 607 с.; Есперсен О. Философия грамматики. Изд. 3-е, стер. – М.: URSS, Ленанд, 2006. – 404 с.; Звегинцев В.А. Язык и лингвистическая теория. – Изд. 3-е, стер. – М. URSS, 2008. – 248 с.; Золотова Г. А. Роль ремы в организации и типологии текста // Синтаксис текста. – М., 2007. – С.117.; Касевич В.Б. Семантика. Синтаксис. Морфология. – М.: Изд. 2, стереотип. URSS, 2023. – 312 с.; Кашельсон С.Д. Общее и типологическое языкознание. – Л., Изд. 2, доп. URSS, 2010. – 344 с.; Кожевникова К. Об аспектах связности в тексте как целом // Синтаксис текста. – М., 2007. – С. 56-57.; Комаров А.П. Система средств выражения причинно-следственных отношений в современном немецком языке: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – М., 1973. – 29 с.; Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка – М.: АН России, 2006. – 446 с.; Кручинина И.Н. Структура и функции сочинительной связи в русском языке – М.: Наука, 2009. – 216 с.; Кубрякова Е.С. Деривация, транспозиция, конверсия // Вопросы языкознания. № 5, 1974: Курилович Е. Деривация лексическая и деривация синтаксическая // Очерки по лингвистике. – М.: Иностранная литература, 1962. – 456 с.; Кухаренко В.А. Интерпретация текста 4-е изд., перераб. – М.: Издательство "Флинта", 2019. – 314 с.; Ломтев Т.П. Структура предложения в современном русском языке – М.: Изд. МГУ, 2006. – 198 с.; Ляпон М.В. Смысловая структура сложного предложения и текст. – М.: Наука, 1986. – 199 с.; Марченко Е.Т. Полипредикативные сложные предложения как единицы текста // Филологические науки. – М., 2003. –№ 5. – С. 42-43.; Москальская О.И. Семантика текста // Вопросы языкознания. – Москва, 1980. –№ 6. – С. 33-34.; Москальчук Г.Г. Структура текста как синергетический процесс: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Барнаул, 1993. – 34 с., Мурзин Л.Н. Основы дериватологии. – Пермь: 1984. Оцифровано: 2022. – 56 с.; Мурзин Л.Н. Синтаксическая деривация (на материале производных предложений русского языка): Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Л.: 1976. – 29 с.; Мышкина Н.Л. Внутренняя жизнь текста. – Пермь, 1998. – 192 с.; Николаева Т.М. Интонация сложного предложения в словянских языках. – М., 1969. – С. 236-237.; Николаева Т.М. О функциональных категориях линейной грамматики // Синтаксис текста. – М., 1979. – С. 37-42.; Петерсон М.Н. Очерк синтаксиса русского языка. – М.: Учпедгиз, 1923. – 224 с.; Петрова Н.В. Текст и дискурс. Вопросы языкознания, № 6, 2003. – С. 80.; Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. – М.: Учпедгиз, 1956. – 448 с.; Попова Е. А. Человек как основополагающая величина современного языкознания // Филологические науки. –№3, 2002. – С. 69-77.; Почепцов Г.Г. Конструктивный анализ структуры предложения. 1977. – 192 с. site: [www.Urss.ru](http://www.Urss.ru); Прокопович Н.Н. Вопросы синтаксиса русского языка. – М.: Высшая школа, 1974. – 350 б.; Реферовская Е.А. Лингвистические исследования структуры текста. – Л.: 1983. – 213 с.; Решетов В.В. Основы фонетики и грамматики узбекского языка. – Ташкент, 2008. – 243 с.; Руднев А.Г. Синтаксис современного русского

Tilshunoslikda global sintaktik strukturalarning shakllanishi va predikativlikning tahlili, matnning semantik-sintaktik strategiyalaridan biri ekanligi, sintaktik strukturalar derivatsiyasi muammolarini o'rganishga asrlar davomida shakllangan zamonaviy metodlar asosida yondashuv hozirgi kunda dolzarb, keng tarqalgan yo'nalish bo'lib, bu sohada o'zbek tilshunosligida global sintaktik strukturalar shakllanishi va predikativlik tahlili hamda sintaktik strukturalar derivatsiyasi tahliliga bag'ishlangan ishlar G'. Abdurahmonov, A.G'ulomov, M. Asqarova, A. Nurmonov, N. Mahmudov, M. Mirzayev, S.Usmonov, I. Rasulov, A.R. Sayfullayev, H. Ne'matov, R. Sayfullayeva, B.O'rinboyev, N. Turniyozov, M. Hakimov, M. Qurbonova, A. Sulaymonov, X.Xoliyorov, J. Omonturdiyev, S. Mahmatqulov, G'.M. Hoshimov, P. Bakirov, M.Yo'ldoshev, S.B. Inoyatov, X. Shokirova, A. Axmedov, S. Solixo'jayeva, S.Ravshanova, A. G'afforov, B. To'ychiboyev, B.Turniyozov, Sh. Turniyozova, X.Z. Xayrullayev va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan hamda bu ishlar davom ettirilmoqda.

Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlardan farqli ravishda ushbu tadqiqot global sintaktik strukturalarning shakllanishini va ularning predikativlikka oid tahlilining umumnazariy tabiati tadqiqiga, shuningdek, mazkur masalaga nafaqat formal-struktur hamda mazmuniy sintaksis nuqtayi nazaridan, balki ma'lum darajada antroposentrik paradigma mezonlariga tayangan holda yondashilganligi bilan ham ahamiyatlidir.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutining "Til taraqqiyotining derivatsion qonuniyatlari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** global sintaktik strukturalarning shakllanishi va ulardagi predikativlik tahlili orqali matnning formal-struktur hamda mazmuniy sintaksis nuqtayi nazaridan nutqiy jihatlarini hamda kommunikativ, derivatsion, formal-struktur va funksional-semantik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

global sintaktik strukturalarning shakllanishi va ulardagi predikativlikning tahliliga doir mavjud qarashlarning jahon, ingliz va o'zbek tilshunosligidagi o'rganilish holatini yoritish, tahlil qilish, matn tushunchasi va unda mujassam bo'lgan global sintaktik strukturaning ilmiy mohiyatini ochish;

*global sintaktik struktura* tushunchasini ilmiy asoslash, *matn* tushunchasining lingvistik tavsifini yoritish, matnning global sintaktik struktura sifatidagi xususiyatlarini aniqlash;

---

языка. – М.: Высшая школа, 1968. Оцифровано: 2009. – 320 с.; Сильман Т. И. Синтактико-стилистические особенности местоимений // Вопросы языкознания. – Москва, 1970. - № 4. – С. 81.; Современный русский язык. – М.: Высшая школа, 1989. – 800 с.; Солганик Г.Я. Синтаксическая стилистика. – М., 2022. – 228 с.; Солицев В.М. Язык как системно-структурное образование – М.: Наука, 1971. – 292 с.; Степанов Ю.С. Основы общего языкознания. – М. Просвещение 1975. – 267 с.; Храковский В.С. Некоторые проблемы деривации взаимных конструкций. – Пермь: Изд-во Перм ун-та, 1980. – 62 с.; Храпченко М.Б. Текст и его свойство // Вопросы языкознания. – Москва, 1985. – № 2. – С. 7.; Шведова Н.Ю. Очерки по синтаксису русской разговорной речи. – М., 2003. – 377 с.; Ширяев Е.Н. Основы системного описания бессоюзных сложных предложений// Вопросы языкознания. – Москва, 1984. - № 1. – С. 57-59.

matn birliklari va ularning jahon, xususan, ingliz va o'zbek tilshunosligida o'rganilishi holatini yoritish, matnning global sintaktik qurilma ekanini, sodda (gap) sintaktik qurilma, murakkab sintaktik qurilma (qo'shma gap) va abzasning uning komponenti maqomida namoyon bo'lishini dalillash;

predikativlik tushunchasi tavsifi va uning mohiyatini o'rganish, bunga munosabat bildirish, uning zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan ahamiyatini belgilash, sodda va murakkab sintaktik qurilmalarning matndagi maqomi va ularda predikativlik ifodasini yoritish.

**Tadqiqotning obyekti** global sintaktik strukturalar shakllanishi, ularning propozitiv, predikativ strukturasini, global sintaktik strukturalarning tuzilishi va predikativlik tahlilidan iborat.

**Tadqiqotning predmeti** hozirgi ingliz va o'zbek tillaridagi global sintaktik strukturalar shakllanishi va ularning predikativlik xususiyatlaridir. Tahlil uchun masala mohiyatidan kelib chiqqan holda, badiiy, ommabop matnlar va ularning komponentlaridan ham foydalanildi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda falsafaning sababiyat nazariyasi va implikasiya usuli, tavsifiy, qiyosiy-tipologik, konseptual-semantik, struktur tilshunoslikning valentlik nazariyasi, sintaktik derivatsiyaning transformatsiya usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

global sintaktik strukturalarning shakllanishi va ulardagi predikativlikning tahliliga doir mavjud qarashlarning jahon, ingliz va o'zbek tilshunosligidagi yutuqlari umumnazariy yondashuv asosida til materialiga tatbiq etilgan, *matn* tushunchasi hamda unda mujassam bo'lgan global sintaktik strukturaning formal-struktur, semantik-sintaktik mohiyati ochib berilgan;

*global sintaktik struktura* tushunchasi hozirgi ingliz va o'zbek tillari materialida alohida-alohida analiz qilingan va shu asosda *matn* tushunchasining lingvistik tavsifi belgilangan, matnning global sintaktik struktura sifatidagi xususiyatlari predikativlik hodisasining tavsifiga doir semantik sintaktikasi nazariy va formal sintaktikasi amaliy tomondan aniqlangan;

inglizcha va o'zbekcha matnlar global sintaktik qurilma ekani, sodda sintaktik qurilma, murakkab sintaktik qurilma va abzas uning komponenti maqomida namoyon bo'lishi dalillangan;

predikativlik tushunchasi tavsiflanib, uning mohiyati ingliz va o'zbek tillari misolida ochib berilgan, bu orqali predikativlikning zamonaviy tilshunoslikdagi ahamiyati belgilanib, sodda va murakkab sintaktik qurilmalarning matndagi maqomi va ularda predikativlik ifodasi yagona markazga bo'ysunishi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Ingliz va o'zbek tili tizimida global sintaktik strukturalar shakllanishi hamda predikativlik tahlili haqidagi nazariy qarashlarga doir xulosalar ingliz va o'zbek tili ta'limi mazmunini takomillashtirishga xizmat qilishi asoslangan;

Ingliz va o'zbek tilidagi global sintaktik strukturalar shakllanishi hamda predikativlik tahlili haqidagi nazariy qarashlardan foydalanish yuzasidan xulosaviy tavsilyalar qayd etib o'tildi;

global sintaktik strukturalarning lingvistik tahlili va ularning shakllanishi tavsifi hamda predikativlik tahlili hozirgi ingliz va o'zbek adabiy tili materialiga tatbiq qilindi;

global sintaktik strukturalar shakllanishi hamda predikativlik tahliliga oid umumnazariy yondashuvning ingliz va o'zbek adabiy tillari materialiga tatbiq asosida qilingan tahlil natijalari lingvistik qonuniyatlarga muvofiq asoslandi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo'yilgani, chiqarilgan xulosalarning tasniflash, tavsiflash va qiyosiy tahlil kabi usullar vositasida asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, tanlab olingan lisoniy materialning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, obyektga yondashuv va qo'llanilgan usullarning tadqiqot maqsadiga mosligi, xulosalarning qat'iyiligi, taklif va tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilganligi, tadqiq materialining ishonchli manbalardan olinganligi, muammoning aniq shakllantirilganligi, olingan natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi. Tadqiqot asosida keltirilgan ma'lumotlarning ishonchliligi rasmiy bosma manbalarda chop etilgan materiallar, shuningdek, monografiya tadqiqotlarida tasdiqlangan va chop etilgan natijalardan foydalanish orqali aniqlandi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati global sintaktik strukturalar shakllanishi hamda ularning matn tushunchasi bilan munosabati, qurilmalarning predikativlikka munosabati tahlili, xususan, ulardagi konstitutiv komponentlarning iyerarxik munosabatlarning derivatsion yondashuvdagi tadqiqi asosida lingvistik tavsifga erishilganida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, global sintaktik strukturalarning shakllanish strukturasi va sintaktik strukturalarning predikativlikka oid tahlili natijasida olingan umumlashtirilgan xulosa va tavsiyalar kelajakda yanada yuqori saviyadagi nazariy asarlar yaratishda muhim qo'llanma bo'lishi, shuningdek, tadqiqot natijalari va xulosalari mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida derivatologiya muammolari, matn lingvistikasi, matn tahlili, tilshunoslik, tilshunoslikka kirish, tilshunoslik asoslari, tishunoslik nazariyasi fanlari bo'yicha ma'ruza matnlari tayyorlash, darslik, o'quv qo'llanmalar hamda lug'atlar yaratishda foydali material bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Global sintaktik strukturalar shakllanishi hamda predikativlik tahlili tadqiqi bo'yicha ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

global sintaktik strukturalarning shakllanishi va ulardagi predikativlikning tahliliga doir mavjud qarashlarning jahon, ingliz va o'zbek tilshunosligidagi yutuqlari umumnazariy yondashuv asosida til materialiga tatbiq etilgani, *matn* tushunchasi hamda unda mujassam bo'lgan global sintaktik strukturaning formal-struktur, semantik-sintaktik mohiyati ochib berilgani haqidagi ilmiy qarashlaridan O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi Milliy instituti Qoraqalpog'iston filialida 2017-2020-yillarda bajarilgan FZ-2016-0908165532 raqamli "Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish

metodikasi” mavzusida bajarilgan fundamental loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi Milliy instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2025-yil 12-fevraldagi 60-son ma’lumotnomasi). Tadqiqot natijalarini amaliy qo‘llash fundamental loyiha doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalar ilmiy saviyasini oshirishga xizmat qilgan;

*global sintaktik struktura* tushunchasi hozirgi ingliz va o‘zbek tillari materialida alohida-alohida analiz qilingan va shu asosda *matn* tushunchasining lingvistik tavsifi belgilangan, matnning global sintaktik struktura sifatidagi xususiyatlari predikativlik hodisasining tavsifiga doir semantik sintaktikasi nazariy va formal sintaktikasi amaliy tomondan aniqlangan natijalaridan; inglizcha va o‘zbekcha matnlar global sintaktik qurilma ekani, sodda sintaktik qurilma, murakkab sintaktik qurilma va abzas uning komponenti maqomida namoyon bo‘lishiga oid dalillardan Samarqand davlat chet tillar institutida Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 12-dekabrda 2/24-4/7-690-sonli xatiga asosan 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta’lim bo‘yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan “English Access Microscholarship Program” loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 13-fevraldagi 430/02-son ma’lumotnomasi). Natijada *global sintaktik struktura* tushunchasining filologik ta’limdagi zamonaviy asoslarining tavsiflanishi takomillashtirilishi ta’minlangan va shu asosda *matn* tushunchasining tavsifi, matnning global sintaktik struktura sifatidagi xususiyatlari predikativlik hodisasining tavsifi konkretlashtirilishiga erishilgan;

predikativlik tushunchasi tavsiflanib, uning mohiyati ingliz va o‘zbek tillari misolida ochib berilgan, bu orqali predikativlikning zamonaviy tilshunoslikdagi ahamiyati belgilanib, sodda va murakkab sintaktik qurilmalarning matndagi maqomi va ularda predikativlik ifodasi yagona markazga bo‘ysunishi aniqlanganligi to‘g‘risidagi xulosalaridan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialida 2021-2023-yillarda bajarilgan “O‘zbek tilining milliy korpusini loyihalash va dasturiy majmua ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyihasida foydalanilgan (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialining 2025-yil 4-fevraldagi 46/01-01-son ma’lumotnomasi). Tadqiqot natijalarini qo‘llash amaliy loyiha doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalar to‘plamining hamda til korpusi haqidagi olib borilgan tadqiqotlarning ilmiy saviyasini oshirishga xizmat qilgan;

inglizcha va o‘zbekcha matnlar global sintaktik qurilma ekani, sodda sintaktik qurilma, murakkab sintaktik qurilma va abzas uning komponenti maqomida namoyon bo‘lishi haqida Xorijiy filologiya: til, adabiyot, ta’lim. Ilmiy uslubiy jurnalida “Global sintaktik struktura tushunchasi xususida”, “Matn global sintaktik qurilma sifatida” hamda Til, tarjima, ta’lim xalqaro jurnalida “Global sintaktik struktura tushunchasi va uning komponentlari xususida ayrim mulohazalar”, “Matnning global sintaktik qurilma sifatidagi tabiati va uning ingliz tilshunosligida o‘rganilishiga bir nazar”, “Murakkab sintaktik butunlik global sintaktik

qurulmalarning konstitutiv komponenti sifatida” maqolalarida foydalanilgan. Natijada fikrlar umumlashtirilib, nazariy xulosalar chiqarilgan. Global sintaktik strukturalarning shakllanishi va ulardagi predikativlikning tahliliga doir mavjud qarashlarning jahon, ingliz va o‘zbek tilshunosligidagi o‘rganilish holatini yoritish, tahlil qilish, matn tushunchasi va unda mujassam bo‘lgan global sintaktik strukturaning ilmiy mohiyati ochib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda, 5 ta xalqaro va 3 ta respublika anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish nashr etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, shundan mahalliy nashrlarda 6 ta, xorijiy jurnallarida 6 ta maqola e‘lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 146 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari belgilangan, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Matn global sintaktik struktura sifatida**” deb nomlangan. Bu bobda jahon tilshunosligida, xususan, ingliz va o‘zbek tilshunosligida matn tushunchasi va uning lingvistik tavsifi hamda global sintaktik struktura tushunchasining o‘rganilishi xususida ma‘lumot keltirilgan.

Bobning birinchi paragrafi “*Matn tushunchasi va uning lingvistik tavsifi*” deb nomlangan bo‘lib, bunda tilshunoslik fanining asosiy e‘tibori uzoq davrlardan beri tilning ichki xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgani, bunga sabab tilni tadqiq etishda metodologik asosning dialektik mohiyati ekani, tilshunoslikda o‘rganish obyektiga bo‘lgan munosabatning o‘zgarishi fan taraqqiyotining bugungi davrida til va nutq birliklarining ilmiy tavsifini qayta ko‘rib chiqishni, uning shu davrgacha bo‘lgan yondashuvini bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda o‘zgartirishni, shu asosda aniqlangan bo‘shliqlarni to‘ldirishni muhim ekanini namoyon etayotganiga asosiy e‘tibor qaratilgan. Bu, o‘z navbatida, matn va uning lingvistik tadqiqiga ham boshqacha yondashishning ahamiyatli ekanini ko‘rsatadi.

Matn va uning lingvistik tavsifi haqida fikr bildirilganida uning, avvalo, tilshunoslikning o‘rganish obykti sifatidagi istilohiy jihatlariga e‘tibor qaratish o‘rinlidir. Bunga ko‘ra, *matn* tushunchasi *tekst* tushunchasi bilan uzviy bog‘liq ekaniga e‘tibor qaratish muhim. Zotan bu ikki termin biri boshqasiga chambarchas aloqadadir.

Yuqoridagi fikrlarimiz *matnshunoslik, tekstologiya* tushunchalarining mavjudligi va qo'llanish mohiyati asosida ham mujassamdir. Biroq *matn* va *tekst* tushunchalari bir-biriga qanchalik yaqin bo'lmasin, matnni tom ma'noda lingvistik o'rganish, boshqacha aytganda uning birliklarini, ya'ni konstitutiv komponentlarini tavsiflash, bu unsurlarning birini boshqasidan farqli xususiyatlarini aniqlash bilan *matn* tarkibida fonetik, leksik, frazeologik, morfemik, sintaktik birliklarning mohiyatini tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilishini tenglashtirib bo'lmaydi. Chunki mazkur lingvistik yondashuvlarning maqsadi, amalga oshirishi lozim bo'lgan vazifalari hamda erishadigan natijalarida katta farqlar bor.

Bunda *matn* emas, balki uning tarkibida turli bosqich, turli pog'ona, turli sathga tegishli bo'lgan birliklar lingvistik tavsiflangan. Biroq bu tahlillarning hech biri *matn*ning lingvistik tadqiqi, tavsifiga aloqador bo'lmagan. Aniqroq qilib aytganda, *matnni* o'rganish deb qaralgan jarayonlar *matnni* emas, uning ichida til va nutq birliklarining namoyon bo'lishiga oid ayrim masalalarni o'rganishdan nariga o'ta olmagan.

Tilshunoslikda shakllangan an'anaviy yondashuvlar samarasi o'laroq ko'plab yutuqlarga erishildi. Bu fan taraqqiyotining yuksalishida alohida ijobiy faoliyat ekanini qayd etish lozim. *Matnga* berilgan ta'rif va tavsiflarning aksariyatida mazkur yondashuvning qarashlari, xulosalari va yutuqlari to'la o'z ifodasini topgan "O'zbek tilining izohli lug'ati" da *matn* (tekst) tushunchasi MATN [a.] *esk. kt. ayn. tekst.*

Mazkur lug'atda *tekst* so'zi TEKST [r<lat] 1 Yozilgan, ko'chirilgan yoki bosilgan ijodiy ilmiy asar, nutq, hujjat va sh.k. yoki ularning bir parchasi; *matn.* 2 Muzika asariga, masalan, biror kuyga, opera, romans va shu kabilarga asos bo'lgan she'r, so'z. 3 *poligr.* Yirik shriftlardan birining nomi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da MATN [a. متن elka; nutqning yozuvdagi ifodasi, tekst] 1.Yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat. Bosma nashrning rasm, chizma va izohlarsiz asosiy qismi.

"O'zbek tilining etimologik lug'ati" da *matn* so'ziga oid quyidagi ma'lumot keltirilgan. MATN. Bu arabcha so'z *matn(un)* shakliga ega (ARS, 741); "mustahkam bo'ldi", "asosli bo'ldi" ma'nosini anglatuvchi *matuna* fe'lining (ARS, 741) birinchi bob masdari bo'lib, (ATG, 142), arab tilida "yelka", "tekst" ma'nolarini anglatadi (ARS, 741); o'zbek tilida "tekst" ma'nosi bilan ishlatiladi (O'TIL, I, 452).

Ko'rinadiki, *matn* tushunchasi yozma, bosma nashrlarning mahsuli sifatidagi umumiy nomlanishni taqozo etadi. *Matn* tushunchasi bilan yonma-yon *tekst* tushunchasi ham qo'llanilishi kuzatiladi. Ular bir-biriga sinonim, boshqacha aytganda, anologik tushuncha bildiruvchi ikki so'zdir. *Matn* so'zining etimologiyasi arab tiliga borib taqalsa, *tekst* so'zi yunoncha, lotincha genezisni taqozo etmoqda.

Devid Kristalning lug'atida: TEKST (*matn*) (ot) – tilshunoslik va fonetikada tahlil va tasvirlash maqsadida yozib olingan til birligi uchun ishlatiladigan nazariy bo'lmagan atama. Muhimi shundaki, *matnlar* yozma yoki og'zaki materiallar to'plamiga ishora qilishi mumkin (ikkinchisi biror bir tarzda transkripsiya qilingan), masalan, *suhbat, monologlar, marosimlar va hokazo.* *Matn* ma'nosi

(textual meaning) baʼzida semantikada maʼno turlarini tasniflashning bir qismi sifatida qoʻllanadi va u matnning qolgan qismidan kelib chiqadigan, jumlaning talqiniga taʼsir etuvchi omillarga ishora qiladi. Masalan, pyesa yoki romanning maʼlum bir nuqtasida maʼlum bir jumla yoki soʻz paydo boʻladi, uning mazmunini oldinroq aytilgan yoki sodir boʻlgan voqealar yordamida anglash mumkin boʻladi.

Matnlarni oʻrganish tilshunoslikning, ayniqsa, Evropada *matn tilshunosligi* deb ataluvchi sohasi uchun ajralib turuvchi xususiyatga aylandi va bu yerda “*matn*” markaziy nazariy maqomga ega. Matnlar aniqlanadigan kommunikativ vazifaga ega til birliklari sifatida qaraladi hamda ular matnning aniqlovchi xususiyati yoki teksturasini belgilaydigan izchillik (cohesion), mantiqiylik (coherence) va informativlik (informativeness) kabi tamoyillar bilan tavsiflanadi. Ushbu tamoyillar asosida matnlar matn turlari yoki janrlarga – *yoʻl belgisi, yangiliklar xabarlari, sheʼrlar, suhbatlar* va boshqalarga boʻlinadi. Ushbu yondashuv koʻpincha *diskurs tahlili* deb ataladigan yondashuv bilan sezilarli darajada oʻxshashlikka ega. Ayrim tilshunoslar ular orasida deyarli farq yoʻq deb hisoblaydi. Ammo ular foydalanish maqsadiga koʻra keskin farq qiladi. Baʼzi tilshunoslar “*matn*” tushunchasini moddiy “*mahsulot*” sifatida, “*diskurs*”ni esa ifoda va talqin qilishning dinamik jarayoni sifatida ajratadi; bu jarayon psixolingvistik va sotsiolingvistik, shuningdek, tilshunoslik texnikalari yordamida oʻrganilishi mumkin. Shunga oʻxshash bir farqlash “*matn*”ni tashqi tuzilishga taalluqli tushuncha sifatida, “*diskurs*”ni esa botiniy tuzilishga taalluqli deb tasavvur qiladi. Boshqa bir qarash esa, “*matn*”ni mavhum tushuncha deb taʼriflab, “*diskurs*” uning namoyon boʻlishi ekanligini bildiriladi. Ushbu nazariy farqlardan tashqari, matnlar koʻpincha yozma, odatda, qisqa (masalan, *yoʻl yopiq*) va monolog shaklida talqin qilinadi, nutqlar esa koʻpincha ogʻzaki va uzunroq boʻlgan dialoglar sifatida qaraladi.

M.Hakimov va M.Gaziyevalar yuqoridagilar asosida “...har qanday tadqiqot mohiyatan semantika, sintaktika va pragmatika kabi strukturadan iborat boʻlishi kerak”, – degan xulosaga kelishgan. Shu bois boʻlsa kerak, mualliflar asarda *ifoda* tushunchasiga ham tez-tez murojaat etishadi. Mazkur tushuncha xususida fikr bildirilganida esa, “Ifoda – bu gapning oʻzi emasligi...” ni bayon etishadi va bunga oʻz fikrlarini asoslash maqsadida boshqa manbalarni ham havola qilishadi.

Birinchi bobning (1.2.) ikkinchi paragrafi “*Global sintaktik struktura tushunchasi xususida*” deb nomlangan. Maʼlumki, jahon tilshunoslari, jumladan, ingliz va oʻzbek tilshunoslari tomonidan keyingi yillarda matn tadqiqi, xususan, uning global sintaktik struktura sifatidagi tavsifiga qaratilgan tadqiqotlar katta miqdorni tashkil etadi.

Matn oʻzidan kichik boʻlgan, aniqrogʻi, oʻz tarkibida kommunikativ funktsiya bajarayotgan, sintaktik faollik olayotgan birliklarning kompleks munosabatidan vujudga keladigan qurilmani taqozo qiladi. Shu bois ham u oʻzida muallifning kommunikativ maqsadini, kutayotgan taʼsiri, erishishi koʻzda tutilgan natijasi, yuzaga keltirishi nazarda tutilgan stimuli va bu orqali sodir boʻluvchi reaksiyani qamrab olishni nazarda tutgan nisbiy global sintaktik strukturadir.

Global sintaktik struktura tushunchasi tom maʼnodagi matnni nazarda tutishi bilan boshqa terminlarga nisbatan mukammaldir. Masalan, keng qoʻllanishda

bo'lgan makromatn tushunchasi ham o'zida kattalik, tugallik singari semalarni mujassam etsa-da, u global sintaktik strukturaning ifodalovchi mohiyatini o'zida to'raligicha qamrab ololmaydi. Chunki makromatn tushunchasi bir necha gap va jumlarlar, murakkab sintaktik qurilmalar, abzas kabilarning munosabatidan iborat bo'lishi bilan yuzaga chiqadi, shakllanadi. Bunda uning konstitutiv mohiyati lisoniy birliklarga asoslangan holda beriladi. Boshqacha aytganda, makromatn komponentlari til va nutq birliklariga asoslanadi. Global sintaktik qurilmaning tuzilishi, uning konstitutiv strukturasi mazmunan va mohiyatan mutlaqo boshqacha mohiyatni nazarda tutadi va bunda matnning komponentlari matndagi mohiyatni ifodalovchi qismlar munosabatidan yuzaga keladi, ularning o'zaro munosabatidan shakllanadi.

T.A. van Deykning fikriga ko'ra matnda axborotning ifodalanishi bir necha xil darajaga ega. Darhaqiqat, bunda so'zlovchining, ya'ni inson faktorining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, matnning maqsadi, mohiyati bilan bog'liq holda shakllanuvchi turlarining har biriga xos jihatlari ham bunda o'ziga xos ahamiyatga ega ekani ham hisobga olinmog'i lozim.

Matnning global struktura sifatidagi tadqiqi haqida fikr bildirganda L.A.Dolbunova uning o'ziga xos tomonlari xususida munosabat bildirar ekan, global sintaktik strukturani tashkil etuvchi komponentlar xususida qimmatli fikrlarni keltiradi va o'z fikrlarini ilmiy asoslab beradi. L.A.Dolbunova global struktura, asosan, sarlavha (Title), kirish-axborot beruvchi qism (Intro), matnning asosiy mazmunini ifodalovchi qism (main part), xulosa qismi (Conclusions), ilova (Annexes) dan tarkib topishi borasida fikr yuritadi va buni huquqiy hujjatlar matni misolida asoslab ko'rsatadi.

Ch.Morris sintaksisni pragmatik yo'nalishda o'rganar ekan, tilning ichki qurilishi va inson munosabati masalalariga diqqat qaratdi. Bunda, avvalo, belgilar orqali so'zlovchi tomonidan yetkazilgan ma'lumotlarni stimullar ekanini, uning tinglovchida qanday reaksiya uyg'otganini qayd etadi.

Ko'rinadiki, tilshunoslikning birgina sintaktik munosabatlarni tadqiq etuvchi sohasida shunchalik kengayish, izohlanayotgan masalalar yechimining nisbatan avvalgisidan farqli bo'lib borayotgani soha taraqqiyoti dinamikasining yuksalishini dalillaydi.

L.L.Nelyubin fikricha, matn – bu barcha sathlardagi til-nutq tizimi birliklarining iyerarxiyasi mantiqan tugallangan, mavzu va uslubiy jihatdan yaxlit va semantik jihatdan mukammal shakllangan holda cheklangan qurilma hisoblanadi.

Matn – nutq birligidir. Uning eng kichik birligi esa, jumla hisoblanadi. Matn gaplardan emas, aniqrog'i u jumladan tuziladi. Matn o'zigacha bo'lgan barcha birliklarning qo'llanishida makro xarakterlidir. Shu bois ham uni global sintaktik qurilma sifatida qayd etish lozim bo'ladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Matn birliklari va ularning o'rganilishi xususida”** deb nomlangan bo'lib, bobda matnning global sintaktik qurilma sifatidagi tabiati, gap va uning matn komponenti sifatidagi tavsifi, murakkab sintaktik qurilmalarning matn komponenti sifatidagi tavsifi, abzas va uning global sintaktik qurilmadagi o'rni masalalari o'rganilgan.

Bobning birinchi paragrafi (2.1.) "*Matnning global sintaktik qurilma sifatidagi tabiati*"ga bag'ishlangan. Matn tushunchasining tavsifiga munosabat bildirilganida, uning ilmiy tavsifiga bo'lgan ehtiyoj ham tadqiq qilinayotgan o'z davriga va shu davr ehtiyojlariga uzviy bog'liqlikda ekanini qayd etish mumkin bo'ladi. Matn muayyan sintaktikaga ega, kommunikativ furksiya bajarishga xoslangan nutqiy hosila sifatida semantik mohiyatni o'zida mujassam etadi. Matn semantik birlik bo'lgani bois, uning ifoda shakli gaplar ko'rinishida amalda namoyon bo'ladi. Bu matn bilan gap o'rtasidagi munosabatni eng yaxshi tarzda izohlashga yordam beradi. Bir-biriga bog'liq gaplar to'plami, eng kichik holatda yagona bir gap, matnning amaliy ifodasi yoki tarkibidir.

Bu xususda fikr bildirganida D. Barton (David Barton) va L. Karmen (Carmen Lee) tilni ilmiy jihatdan tadqiq etishda, o'rganishda *matn* tushunchasi markaziy o'rin tutishini va aksariyat ijtimoiy sohalarida til o'rganish obyekti sifatida xizmat qilishini qayd etadi. Ularning nazarida *matn* atamasi sifatida qaralayotgan ijtimoiy tushuncha turli bilim sohalarida turlicha talqin qilinishini inobatga olish alohida ahamiyat kasb etishi shubhasiz. Bu mutaxassislarning fikriga ko'ra, tilshunoslik sohasida matn muhokama qilinayotgan tilning har qanday izchil qismi sifatida qaraladi. Matn va u bilan bog'liq tasavvurlar, odatda, yozma nutqqa ishora qiladi, boshqacha aytganda, matn yozuv orqali namoyon bo'ladi. D.Barton va L.Karmen og'zaki nutqda bayon qilingan fikrlarning grafik tasvirlanishi *matn*, degan qarashni-ilgari surishadi.

M.A.K. Halliday va R. Hasanlarning fikricha, "matn" atamasi muloqot vositasi sifatida tilni biluvchi shaxs uchun uni mantiqan tushunishga yordam beradigan har qanday til misoli sifatida qaraladi. Matn og'zaki yoki yozma, nasriy yoki nazmiy, dialog yoki monolog bo'lishi mumkin. U bitta maqoldan tortib to butun pyesagacha, qisqa bir daqiqalik yordam chaqirig'idan tortib, hattoki muayyan bir qo'mitadagi butun kunlik muhokamagacha bo'lishi mumkin. Bu mutaxassislar matnga til birligi sifatida qarasarlar ham, ular matnning grammatik birlik emas, degan munosabatni ilgari surganlar. Ularning fikrlaricha, matn faqatgina kattaroq gap emas, u o'z tabiatiga ko'ra gapdan farq qiladi.

Demak, matn tom ma'noda global sintaktik strukturani taqozo etar ekan, sodda gaplarning har qanday turi sodda sintaktik qurilma maqomida, qo'shma gaplar va uning barcha tip va turlari murakkab sintaktik qurilma maqomida bo'lishi izoh talab etmaydi. Sodda va murakkab sintaktik qurilmalar abzas tarkibida faollashadi hamda ayni jarayonda o'zlariga nisbatan global sintaktik qurilma maqomida bo'lgan matnning tarkibidan konstitutiv komponent sifatida o'rin oladi.


Bobning ikkinchi paragrafi (2.2.) "*Gap va uning matn komponenti sifatidagi tavsifi*"ga bag'ishlangan. Bu boradagi fikr va qarashlarni o'rganar ekanmiz, gapning kommunikativ aspekti alohida ahamiyat kasb etishini e'tiborga olish lozim deb o'ylaymiz. Ana shulardan kelib chiqqan holda, til birligi sifatida gap semantikasiga faqat nominativ plan – propozitsiya plani oid ekanini qayd etish mumkin bo'ladi. Kommunikativ plan esa jumla semantikasining, boshqacha aytganda, nutq semantikasining predmeti sifatida qayd etishga imkon beradi.

Sintaktik qurilmalar tub mohiyatiga nazar tashlar ekanmiz, ularning umumiy tarkibida yetakchi komponent va ikkilamchi funksional strukturani ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Bunda:

–*What are you doing?*

–*We are trying to help you.*

Keltirilgan (1-rasm) jumlaning tuzilishi quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi:



### 1-rasm. Yetakchi komponent va ikkilamchi funksional struktura.

1) *We are trying ...*; 2) *We are trying to ...*; 3) *We are trying to help ...*; 4) *We are trying to help you.*

Keltirilgan rasmdagi tavsif yuqorida qayd etilgan yetakchilik va ikkilamchilik ustuvorligining tamoyillarini to'liq asoslashga imkon bermaydi. Bu o'rinda qayd etilgan ikki tarkibiy tuzilma xususidagi fikr o'zini oqlamaydi. Bunda keltirilgan tasvir shuni ko'rsatadiki, bevosita ishtirokchilar tahlilning har bir bosqichida tahlil obyekti ikkiga bo'linishi lozimligi prinsipning asosiy talab va mezonlaridan hisoblanadi. Biroq, tahlilda shajara birinchi bosqichda uchta tarmoqqa bo'linmoqda. Bu esa tahlilda ishtirokchi komponentlar o'z xoslangan semantikasiga ko'ra ikki konstitutiv strukturadan iborat bo'lishi kerak edi. Chunki, keltirilgan misol tahlilida tarmoqlanish tasvirda uchta komponent borligini namoyon qilgan.

Demak, jumla ana shunday talab va ehtiyojlarga asosan shakllanadigan birlikdir. Masalan, gapdagi matnli resurslar, faol-passiv muqobil kabi, ma'no ifodalovchi va shaxslararo fikr almashinuvchi ma'no yo'nalishlarini bir butun xabarga birlashtiradi. Bu xabar faqat alohida ifodalangan ma'no emas, balki nutqda undan oldin kelgan kontekst bilan bog'liq holda o'z ma'nosini topadi. Har bir ma'no turi o'ziga xos tuzilmalar orqali kodlanadi, va uch xil tuzilma birlashib jumalalarda yagona shakllanishni vujudga keltiradi. Bular:

- 1) kishining olam haqidagi tasavvurining lisoniy ifodasi;
- 2) shaxslar o'rtasidagi kommunikativ munosabat;

3) vujudga kelgan axborot – matn.

Odatda, sodda sintaktik qurilma (sodda gap) asosan ikki qism: ega va kesimdan tuzilganligi qayd etiladi. Bunda ega semantik va kommunikativ jihatdan sintaktik qurilmada tasvirlangan holatning asosiy ishtirokchisini (masalan *the plane/Tom*) bildirib, *maʼzu* maqomiga daʼvo qiladi. Kesim faqat predikatoridan tashkil topishi mumkin va u feʼl guruhi orqali yoki bir nechta boshqa elementlardan tarkib topgan predikatoridan iborat boʻlishi mumkin:

1. The plane landed. (Samolyot qoʻndi.)

2. Tom disappeared suddenly after the concert. (Tom konsertdan soʻng kutilmaganda gʻoyib boʻldi.)

Birinchi misol (The plane landed.) dagi qurilmaning ikki komponenti ega (*the plane*) va feʼl orqali ifodalangan predikator (*landed*) zaruriy tarkibiy komponentlardir.

Ikkinchi misol (Tom disappeared suddenly after the concert.) da esa kesim – predikator (*disappeared*) bilan birga, ikki element (*suddenly* va *after the concert*) ni oʻz ichiga oladi. Bunday elementlar sintaktik qurilmani sintaktik va semantik toʻldirayotgani maʼlum, biroq ular jumlani toʻldirish uchun zarur emas. Bunday fikr bildirishimizning sababi ular maʼlum darajada mazkur sintaktik qurilmaga integratsiyalangan boʻlsa ham, ularning tushirib qoldirilishi sintaktik qurilmaning toʻgʻri va maqbul boʻlishiga salbiy taʼsir koʻrsatmaydi (A.Downing, Ph.Locke). Qayd etish joizki, sintaktik qurilmalardagi bunday unsurlar qurilmaning matnning konstitutiv unsuri sifatida nütqiy ehtiyojni qondirish uchun kommunikativ zaruratni qondirishga xizmat qilmoqda. Qiyoslaymiz<sup>4</sup>: 1. The plane landed. a) *landed* (tub struktura) – V; b) *The plane landed* (tayanch struktura) – N +V. 2) Tom disappeared suddenly after the concert. a) *disappeared* (tub struktura) – V; b) *Tom disappeared* (tayanch struktura) – N +V; c) *Tom disappeared suddenly* (hosila struktura) – N +V+X; d) *Tom disappeared suddenly after the concert* (hosila struktura) – N +V+X+X

Shuni ham alohida qayd etish oʻrinliki, gap va uning lingvistik tavsifi masalasidagi qarashlar ularning sodda va qoʻshma gap tiplariga ajratilishi fanimiz taraqqiyotining qiyosiy-tarixiy paradigmasi asosidagi bilimlarga asoslangani bilan xarakterlanadi.

Bobning uchinchi paragrafi (2.3.) “Murakkab sintaktik qurilmalarning matn komponenti sifatidagi tavsifi” deb nomlangan. Tilshunoslik oʻzining rivojlanishida keyingi yillarda matn va murakkab sintaktik qurilmalar, xususan, gapdan katta birliklar tavsifiga qaratilgan tadqiqotlar katta miqdorni tashkil etadi. Global sintaktik struktura maqomidagi hosila qurilma, yaʼni matnda uning segmenti sifatida ajratuvchi birliklar sirasiga kiruvchi komponentlar qatorida murakkab sintaktik qurilma koʻrinishida shakllanuvchi koʻchirma gapli qurilmalar, murakkab sintaktik butunliklar matn bilan toʻgʻridan-toʻgʻri na sintaktik, na semantik aloqaga kirisha olmaydi. Bu qurilmalar, avvalo, oʻzidan katta nutq birligi sanaluvchi

<sup>4</sup> Qarang: qurilmaning formulasi N – subyektni, V – predikatni, X – yordamchi unsurlarni ifodalash uchun qoʻllanilgan.

abzasning konstitutiv komponentiga aylanishi zarur. U abzas tarkibidagina global sintaktik strukturaga ega bo'lgan matn tarkibiga kira oladi.

Bobning to'rtinchi paragrafi (2.4.) "*Abzas va uning global sintaktik qurilmadagi o'rni*" deb nomlangan. Abzas tilshunoslikda mutaxassis-tilshunoslarning qaysi soha bo'yicha izlanish olib borishiga, uning lingvistik obyektga bo'lgan individual munosabatidan kelib chiqqan holda turlicha tavsiflanmoqda. Abzasni stilistik, sintaktik, semantik birlik sifatida tavsiflanishi holatlari ham uchraydi. Albatta bu qarashlarning zamirida ham asosli fikrlar bor ekani shubhasiz. Bunday qarashlar ham bo'shliqda shakllanmagan. Biroq uning matn tarkibida asosiy komponent sifatida qaralishi masalasi har doim ham diqqat markazida bo'lgan deyish qiyin. Matnni kompozitsion kommunikativ yondashuv asosida o'rganish jarayonida abzas, bizningcha, eng muhim birlik darajasini egallaydi. Bunda uning kommunikativ aspekti tom ma'noda ustuvorlik kasb etadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Nutq birliklari, ularda predikativlik munosabati**" deb nomlangan. Bobda predikativlik tushunchasi tavsifi va uning mohiyati, sodda va murakkab sintaktik qurilmalarning matndagi maqomi va ularda predikativlik ifodasi, abzasning matndagi maqomi va undagi predikativlik xususidagi masalalar tadqiq qilingan.

Bobning (3.1.) "*Predikativlik tushunchasi tavsifi va uning mohiyati*" nomli paragrafida predikativlik hodisasining lingvistik tavsifi hamda talqini fan taraqqiyotining barcha davrlarida ham, barcha bosqichlarida ham munozarali bo'lib keldi va bu holat tilshunoslikning bugungi davrida ham ana shunday bo'lib qolayotganiga munosabat bildiriladi. Mazkur masala tavsifiga V.V.Vinogradovning bu haqda bildirilgan fikr va mulohazalaridan so'ng chek qo'yilgandek bo'lgan bo'lsa ham, muammo doirasidagi bahs va munozara tilshunolar orasida butkul to'xtab qolmadi. Predikativlik muammosi rus tilshunosligida A.A. Potebnya, E.A. Boduen de Kurtene, A.A. Shaxmatov, V.V.Vinogradov, M.I. Steblin-Kamenskiy, A.I. Smirniskiy, Y.S. Stepanov, A.G.Rudnev, A.N. Gvozdev, Y.I. Shutova, V.B. Kasevich va boshqalar tomonidan nisbatan mukammalroq o'rganildi. Ammo masala mohiyati ko'p hollarda bir tomonlama o'rganildi. Bu sohada Praga tilshunoslik maktabi vakillari Y.Kurilovich, V. Matezius, A. Martenelarning hamda A.A. Xolodovich kabi tilshunoslarning xizmatlarini alohida qayd etish lozim. O'zbek tilshunosligida ham bunday masalalar taniqli tilshunolar G'.Abdurahmonov, A. G'ulomov, M.Asqarova, A. Nurmonov, N. Mahmudov, N. Turniyozov, I. Rasulov, H.Ne'matov, R. Sayfullayevlar va ularning ko'plab shogirdlari tomonidan ancha asosli tadqiq etildi.

Predikat tushunchasi gapning bir bo'lagini nomlashda qo'llanilana boshlashini va buni hozirgi davrda ham ko'pchilik g'arb tillarida (ingliz, fransuz, ispan, italyan tillari) shunday ishlatilishini kuzatish mumkin. Rus tilida esa, uning semantik kalkalashtirilgan shakli "сказыемое" termini ishlatiladi. Boshqa tillarda ham, xususan, o'zbek tilida "kesim", tojik tilida "xabar" deb nomlanuvchi gap bo'laklari nomlari mazkur terminning ma'lum darajada semantik kalkalashgan shakllari ishlatilishini qayd etish imkonini beradi.

Bobning (3.2.) "*Sodda va murakkab sintaktik qurilmalarning matndagi maqomi va ularda predikativlik ifodasi*" nomli paragrafida keyingi yillardagi mavjud qarashlarda nutqning minimal birligi sifatida gap nazarda tutilayotganining guvohi bo'lishimiz mumkin. Biroq, shunga qaramay, gapni tilning birligi sifatida tavsiflash holatlari ham kuzatiladi. Gap nutqning asosiy birligi tarzida qayd etilgani bois, u nutqning minimal birligi maqomida matn hosil bo'lishidagi asosiy konstitutiv komponentdir.

Demak, abzas gap va murakkab sintaktik qurilmalardan tarkib topishi xususida shakllangan ilmiy mulohazaning ham izohtalab ekani namoyon bo'ladi. Bizningcha, gap tushunchasining o'rniga *jumla* terminini qo'llash va jumalarning sintaktik tabiatidan kelib chiqqan holda uning turlari sifatida sodda sintaktik qurilmalar hamda murakkab sintaktik qurilmalarni belgilash o'rinni bo'ladi:

*–Hamma yerlar asta-sekin o'shalarga o'tib ketayotibdi. Qo'limizda yer qolmadi, hammamiz chorikor bo'lib qoldik. Ishlatib-ishlatib hech narsa bermaydi. Bir so'm qarzimizni o'n so'm qilib ko'rsatib, bizga ko'nadigan haqni olib qolaberadi* (Cho'lpon. Kecha va kunduz. 247-bet.).

An'anaviy grammatikada mavjud bo'lgan gap haqidagi sintaktik nazariya bunday sintaktik qurilmalarni *gap* deb tan olsa ham, ular gapga xos bo'lgan grammatik mezonlarning aksariyatiga mos kelmaydi.

So'z-gaplarning predikativligi uning aytilish ohangiga bog'liqdir. Aniqroq qilib aytganda, bu ma'lum vaziyat, kontekst, o'ziga xos ohang orqali amalga oshadi. Shunday bo'lmas ekan, so'z-gapda kommunikativ funksiya o'z ifodasini topmaydi. Qayd etilgan fikrlar shuni ko'rsatadiki, so'z-gaplarda ega, kesim bo'lmasa ham, voqelikka ro'yi-rost munosabat ifodasi shakllangan bo'ladi, predikativlik aniq ifodalanadi.

Parataktik qurilma va uning predikativlik belgisi ko'p jihatdan munozaralidir. Parataktik qurilmaning komponentlari sintaktikasida teng bog'lovchilarning yoki yuklama, bog'lovchi vazufasidagi *bo'lsa, esa* so'zlarining biri orqali o'zaro munosabati kuzatiladi:

1. *Ancha vaqtgacha miyasiga hech narsa kirmay turdi-yu, keyin o'sha sahifalarni jiddiylik bilan qayta-qayta takrorlay boshladi* (O'.Hoshimov. Qalbingga quloq sol. 4-b.).

2. *Ko'cha o'rtasida mashinalar izi tasmadek qorayib qolibdi, ammo yo'laklarga oyoq botadi* (O'.Hoshimov. Qalbingga quloq sol. 4-b.).

Keltirilgan misollarda murakkab sintaktik qurilma sintaktik shakllanishini ta'minlayotgan komponentlarning har birini alohida tasavvur etaylik:

1. *Ancha vaqtgacha miyasiga hech narsa kirmay turdi.*

2. *Keyin o'sha sahifalarni jiddiylik bilan qayta-qayta takrorlay boshladi.*

1. *Ko'cha o'rtasida mashinalar izi tasmadek qorayib qolibdi.*

2. *Yo'laklarga oyoq botadi.*

Ko'rinadiki, parataktik qurilmalarning sintaktikasida qurilmaning ikkinchi qismi tarkibidan nutq muhitning talabiga ko'ra hosila qurilmalarning grammatik va mazmuniy mukammalligini ta'minlash maqsadida ayrim bo'laklar (birinchi misolda ega) tushirilgan. Biroq, shunday bo'lsa-da, har bir komponentning mustaqil ekani xususida fikr bildirish qiyin. Shundan kelib chiqqan holda,

parataktik qurilma tarkibiy qismlarining alohida tub strukturalarga asoslanishini dalillab bo'lmaydi.

Gipotaktik qurilma va uning predikativlik belgisi ko'p hollarda munozaralidir. Nazarimizda, buning o'ziga xos sabablari bor. Chunki mazkur tipdagi sintaktik qurilmalarda an'anaviy tahlilda bosh gap muhim o'rinni egallagan. Shu bois ham qurilmada bosh gapning mavqeyi baland hisoblangan. Tobe komponent maqomidagi qism – ergash gapning qurilmada kelishi uning o'zi o'zi uchun emas, balki bosh gap uchun yashashida ekani alohida qayd etilgan.

Bobning (3.3.) uchinchi paragrafi "*Abzasning matndagi maqomi va undagi predikativlik xususida*" deb nomlangan. Nutqning kommunikativlikka ega bo'lgan eng kichik birligi bu jumladir. U tuzilishi va sintaktikasiga ko'ra ikkiga bo'linadi. Bular sodda sintaktik qurilmalar va murakkab sintaktik qurilmalar sanaladi. Jumla matn tarkibidan o'rin olishi uchun, avvalo, uning sintaktik strukturasi o'rin olishi lozim bo'ladi.

Mikromatlarda jumlar bitta aniq mavzu atrofida jamlanadi, makro matnlarda esa mikro matnlar global – giper mavzu ostida birlashtiriladi. Bu borada N.Kervalidze fikr yuritganida, giper mavzu mikro mavzulardan kelib chiqishini qayd etadi va misol tariqasida dalil keltirar ekan, Prins Garri haqidagi gazeta xabaridagi misolni tahlil qiladi. Bu gazetadagi xabar – matnning giper mavzusi sifatida "**Prince Harry Vacationing in Majorca Without 'Girlfriend'**" sarlavhasi belgilanadi. Sarlavha ostida tashkil etilgan makromatn to'rtta mikro matndan tashkil topgan. Mikromatnlarning har biri o'zining aniq mavzusida jamlangan. Birinchi mikromatnning mavzusi – **Prince Harry** Mayorkada dam olish, ikkinchisi – **Prince Harry in the company of a bikini-clad female**, uchinchi – **Shef Christian Catrina reporting about Prince Harry**, va to'rtinchisi – **Prince Harry's girlfriend alone in London**.

N. Kervalidze bundan tashqari, "Mega matn" tushunchasi xususida ham munosabat bildiradi va, u "mega matn"ni bir muallifning mavzu jihatdan o'zaro bog'liq qisqa hikoyalari, she'rlari yoki hatto romanlari siklini o'z ichiga olishini qayd etadi. Masalan, **John Galsworthy**ning "**The Forsyte Saga**" trilogiyasi mega matnni ifoda etishini, chunki unga "**The Man of Property**", "**In Chancery**" va "**To Let**" nomli romanlar kirib, har biri Forsaytlar oilasining ma'lum bir davrini tasvirlaganini dalil sifatida keltiradi. Biz bunga o'zbek adabiyotida yaratilgan Said Ahmadning "Qirq besh kun", "Hijron kunlarida", "Ufq bo'sag'asida" romanlaridan tarkib topgan "Ufq" trilogiyasini ham misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Biroq bu romanlarning bir geper mavzuda birlashishi ularning makro yoki mega matn sifatida tavsiflanishining lingvistik prinsiplarini alohida qayd etishga ehtiyoj tug'diradi. Bu, albatta, o'zining konseptual lingistik asosiga ega bo'lishi lozim. Mazkur ta'rif "**Fire!**", "**Help!**" kabi bir so'zdan iborat matnlar mavjudligini anglashga undaydi. Bunday matn ko'rinishlari tegishli nutq aktlari konteksti bilan cheklangan bo'ladi. Abzas nutqning faol bevosita ishtirokchilaridandir. Masalan:

*Ertasi kechqurun Qonqus yoqasida – Alimardonning eng baxtiyor, eng pokiza damlari – bolalik yillari kechgan o'sha anhor yoqasida jimgina mudrab yotgan go'ristonda yana bir qabr mungli do'ppaydi. Hassakashlar go'ristondan chiqib*

ketayotganida yangi mozorning yomg'irdan ivigan mayin tuprog'i ularning ortidan unsizgina javdirab qoldi.

... O'sha kuni kunbotar oldida havo ochilib ketdi. Ufqqa quyosh qon sachratib yubordi. Anvar qabr ustida uzoq o'tirdi. (U) Unsiz yig'ladi. Negadir shu oqshom quyosh juda qiynalib botdi. (U) Ufq etagida uzoq osilib turdi-da, (U) oxiri umidi uzilganday sekin-sekin yer ostiga cho'kib ketdi.

Yana bir necha kundan keyin yayrab-yashnab bahor keldi. Go'riston yonidan keskin burilib oqayotgan Qonqus toshqin suvlarini bag'riga sig'dirolmay shovullay boshladi. Lojuvard osmon makoniga qaytayotgan turnalarning qiyqirig'i bilan to'lib ketdi.

(Shu kuni) Qabriston chekkasidagi qator-qator teraklar yaproq yozib oy nurida hazin shivirladi.

Tong otishi bilan juft-juft bo'lib olgan qushlar bezovta chirqillab iniga xas-xashak tashib qoldi. Osmon-u falakda yakka-yolg'iz to'rg'ay nola chekdi.

Saxiy ko'klam ko'p qatori Alimardonning qabrini ham chechaklarga burkadi. Maysalar orasida ochilgan bittagina qizg'aldoq tong shudringiga qadah tutdi. Erta-indin to'kilib ketishi, o'zidan na bir muattar bo'y, na meva qolishidan bexabar yal-yal yondi... (O'.Hoshimov. Bahor qaytmaydi. 236-237- bet).

Keltirilgan matn oltita abzasdan tarkib topgan bo'lib, uning birinchi abzasi ertasi, ikkinchi abzasi o'sha kuni, uchinchi abzasi yana bir necha kundan keyin, to'rtinchi abzasi shu kuni (tushirib qoldirilgan, matnda impisit ifodalangan), beshinchi abzasi tong otishi bilan, oltinchi abzasi ko'klam so'zi bilan ifodalangan operatorlar yordamida o'zaro sintaktik aloqani hosil qilmoqda va, o'z navbatida, olti abzas bir matnda birlashib, yagona derivatni vujudga keltirgan. Abzas haqida bildirilgan qarashlarda ham fikrlar bir xilligi kuzatilmaydi. Bu borada uni stilistik birlik, kompozitsion-stilistik birlik, stilistik-kompozitsion birlik, sintaktik birlik deb ta'riflovchilar o'z fikrlarini asoslab munosabat bildirishgan. Abzasni stilistik birlik (I.R. Galperin, S.E. Kryuchkov, L.Y. Maksimov), kompozitsion-stilistik birlik (N.S. Valgina), stilistik-kompozitsion birlik (B. O'rinboev), sintaktik birlik (A.M. Peshkovskiy, A. G'ulomov, A.G. Rudnev, N. Turniyozov, B. Turniyozov, Sh. Turniyozova) sifatida qayd etilgan o'rinlar mavjud.

Bizningcha, matn makrosegment maqomida qaralsa, abzas uning tarkibidagi mikrosegmentdir. Abzasning segmentatsiyasi jumalarni, ya'ni sodda va murakkab sintaktik qurilmalarni tashkil etadi. Jumlaning segmentatsiyasi ularning tilning qanday belgilaridan tarkib topganini aniqlashga asos yaratadi. Bu esa, ayni chog'da til va nutq birliklarining nafaqat paradigmatik va sintakmatik munosabatda ekanini, balki pog'onali munosabatning ham faolligini muhim munosabat sifatida qayd etishga undaydi.

## XULOSA

1. *Matn* tushunchasi *tekst* tushunchasi bilan uzviy bog'liq. Bu ikki termin biri boshqasiga chambarchas aloqadadir. Matnda so'z va iboralarning kommunikativ jihati emas, balki semantik belgilari, leksik qudrati, frazeologik mazmuni va uning real ifodasi kuzatiladi. Biroq bu tahlillarning hech biri matnning lingvistik tadqiqi, tavsifiga aloqador bo'lmaydi. Bunda matnni o'rganish deb

qaralgan jarayonlar matnni emas, uning ichida til va nutq birliklarining namoyon bo'lishiga oid ayrim masalalarni o'rganishdan nariga o'ta olmaydi.

2. Matnlar aniqlanadigan kommunikativ vazifaga ega til birliklari sifatida qaraladi hamda ular matnning aniqlovchi xususiyati yoki teksturasini belgilaydigan izchillik (cohesion), mantiqiylik (coherence) va informativlik (informativeness) kabi tamoyillar bilan tavsiflanadi. Matn yagona yaxlitlik sifatida individualdir. Matn – bu nutqiy faoliyat mahsuli, og'zaki yoki yozma nutq mahsulidir. Matn masalasida olimlarning ta'rif va tavsiflari qanchalik turli-tuman bo'lmasin, eng muhimi, so'zlovchining stimulini qondirish uchun vujudga keluvchi reaksiya nutqni taqozo etadi. Chunki mazkur jarayon ko'p qirrali bo'lib, unda botiniy va zohiriy ifodalar to'la o'z in'ikosini topadi. Bu esa matnsiz amalga oshmaydi. Shu bois ham, matn global sintaktik qurilma maqomiga har tomonlama da'vo qilishga loyiq sintaktik strukturadir.

3. Matn o'zidan kichik bo'lgan, aniqrog'i, o'z tarkibida kommunikativ funksiya bajarayotgan, sintaktik faollik olayotgan birliklarning kompleks munosabatidan vujudga keladigan qurilmani taqozo qiladi. Shu bois ham u o'zida muallifning kommunikativ maqsadini, kutayotgan ta'siri, erishishi ko'zda tutilgan natijasi, yuzaga keltirishi nazarda tutilgan stimuli va bu orqali sodir bo'luvchi reaksiyani qamrab olishni nazarda tutgan nisbiy global sintaktik strukturadir.

4. Minimal matn va maksimal matn tushunchalari tilshunoslikda munozarali va bahstalabdir. Chunki bu tushunchalar mikro- va makromatn tushunchalari bilan tenglashtiriladi. Bizningcha, minimal matn tushunchasi bilan mikromatn tushunchasi o'zaro bir xil emas. Xuddi shuningdek, makromatn va maksimal matn tushunchalari ham biri boshqasidan farq qiladi. Predikativlik ifodasi uchun eng kichik obyekt bu – jumladir. Matn – nutq birligidir. Uning eng kichik birligi esa, jumla hisoblanadi. Matn gaplardan emas, aniqrog'i u jumlalardan tuziladi. Matn o'zigacha bo'lgan barcha birliklarning qo'llanishida makro xarakterlidir. Shu bois ham uni global sintaktik qurilma sifatida qayd etish lozim bo'ladi.

5. Sistem-struktur jihatdan matn tom ma'noda global sintaktik strukturani taqozo etadi. Sodda gaplarning har qanday turi sodda sintaktik qurilma maqomida, qo'shma gaplar va uning barcha tip va turlari murakkab sintaktik qurilma maqomida bo'lishi izoh talab etmaydi. Sodda va murakkab sintaktik qurilmalar abzas tarkibida faollashadi hamda ayni jarayonda o'zlariga nisbatan global sintaktik qurilma maqomida bo'lgan matnning tarkibidan konstitutiv komponent sifatida o'rin oladi. Matn – boshlanishi va tugashi aniq bo'lgan og'zaki yoki yozma nutqning uzluksiz bir bo'lagi hisoblanadi. Ba'zi tilshunoslar uchun *matn* va *diskurs* bir xil tushuncha sanaladi. Boshqalar uchun esa matn ma'lum bir natija, ya'ni diskursning fizik mahsuloti sifatida qaraladi, diskurs esa matn yaratish jarayoni sifatida tavsiflanadi.

6. Abzas o'zining kompozitsion tuzilishi, kommunikativ maqsadi, kognitiv asosi va pragmatik mohiyatiga ko'ra, xususan, komponentlariaro kuzatiladigan sintaktikasiga ko'ra nisbiy yaxlitlikni taqozo qiladi. Abzasning shakllanishida ma'no va mazmun hamda bu orqali vujudga keluvchi kommunikatsiya, mazkur kommunikatsiyadan ko'zlangan pirovard natija, ya'ni pragmatik ta'sir yetakchilik qiladi. Shunday ekan, uning tarkibidagi jumalarning har biri orqali shakllangan

ma'no mazmun emas, tom ma'nodagi abzasning umumiy kommunikativ salmog'i va uni shakllantiruvchi yaxlit semantika hamda uni ifodalashga xoslangan diskret sintaktika asosiy rolni bajaradi.

7. Abzasning tarkibidagi jumalarning har birining ma'nosi abzasning umumiy ma'nosini ifodalashga xizmat qilsada, abzasda shakllanuvchi umumiy mazmunni mazkur abzas tarkibidagi jumalar ma'nosi yig'indisiga tenglashtirib bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, abzas tarkibidagi jumalar har biri alohida alohida shakl va mazmunni berish uchun emas, balki shu abzasning mazmunini berishda ifodalovchi (shakl) ni taqozo etadi. Abzasning mazmuni esa ifodalanuvchi sifatida ana shu shakl orqali zohir bo'ladi.

8. Matn tom ma'noda majmuaviy sistema va strukturani taqozo etishga qodirligi shubhasiz. Uning bu xususiyati mazkur qurilmalarning sintaktikasi orqali vujudga keladi. Matnning ushbu lingvistik tabiati tilshunoslikda uni global sintaktik qurilma maqomida o'rganilishiga asos bo'la oladi.

9. Jahon tilshunosligida predikativlik talqini va tadqiqi bugungi kunda ham munozarali bo'lib qolayotgan ekan, bu masala tadqiqiga bag'ishlangan har bir ish uning biror qirrasini yoritishga xizmat qilishini qayd etish mumkin. Aslida ham predikativlik tushunchasi mantiqiy hodisa asosida shakllangan. Lekin, mazkur tushuncha keyinchalik tilshunoslikda ham qo'llanila boshlagan va gapning vazifaviy xususiyatini ko'rsatuvchi sintaktik kategoriyalardan biri sifatida qabul qilingan.

10. Parataktik, gipotaktik qurilmalar ustpredikativ belgilidir. Ustpredikativ belgi bu tipdagi murakkab sintaktik qurilmalar predikativ markazlarining umumiy munosabatida reallashadi. Bog'lovchisiz shakllangan murakkab sintaktik qurilmada ustpredikativlik semantik va prosodik omillar yordamida voqelanadi. Bunday qurilmalarning ham har qanday ko'rinishi matnda bitta jumla sifatida o'z o'rniga ega hisoblanadi va ulardagi, odatda, ustpredikativlik deb qaralib kelinayotgan predikativ belgi jumlaning global sintaktik strukturadagi yagona predikativ belgisi sifatida namoyon bo'ladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01. ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**  

---

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ  
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**ЗАЙНИЕВА МАДИНА ХУРШИДЖОН КИЗИ**

**ГЛОБАЛЬНЫЕ СИНТАКСИЧЕСКИЕ СТРУКТУРЫ И  
ВЫРАЖЕНИЕ ПРЕДИКАТИВНОСТИ В НИХ  
(на примере английского и узбекского языков)**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ**  
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Самарканд – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2022.1.PhD/Fil2247

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский(резюме)) размещён на веб-сайте Научного совета (www.samdchti.uz), а также на информационном образовательном портале «Ziyouet» (www.ziyouet.uz).

**Научный руководитель:** **Гурниёзов Незмат Каюмович**  
доктор филологических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** **Сулаймонова Нилуфар Жаббаровна**  
доктор филологических наук, профессор

**Зияев Аваз Ихтиёрвич**  
доктор филологических наук, профессор

**Ведущая организация:** **Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова**

Защита диссертации состоится «5» сентября 2025 г. в 10<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 по присуждению учёных степеней при Самаркандском государственном институте иностранных языков. Адрес: 140117, Узбекистан, Самарканд, улица Гагарина, дом 43. Тел.: (99866) 238-29-37; факс: (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за номером 61936). Адрес: 140117, Узбекистан, Самарканд, улица Гагарина, дом 43. Тел.: (99866) 238-29-37.

Автореферат диссертации разослан «15» августа 2025 года.  
(реестр протокола рассылки за № 31 от «15» августа 2025 года).



**Н.З. Насруллаева**

Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

**У.У. Кулдонов**

Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент

**Д.А. Киселёв**

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В настоящее время в мировом языкознании изучение формирования глобальных синтаксических структур и анализа предикативности на основе лингвистических закономерностей, исследование связанных с этим речевых проблем с использованием современных достижений науки стало одной из актуальных задач. В частности, все более актуальным становится вопрос исследования актуализации языковых единиц, их речевой семантики, синтаксиса и коммуникативных особенностей с точки зрения формально-структурного и содержательного синтаксиса.

Это связано с тем, что в лингвистике развиваются такие современные направления, целью которых является исследование человеческой речи, в частности, в виде текста: прагмалингвистика, когнитивная лингвистика, нейролингвистика, психолингвистика и другие области. Возрастает потребность в изучении формирования глобальных синтаксических структур и анализа предикативности в них на основе достижений в развитии этих областей. Растущая потребность в инновациях в этой области ставит новые задачи перед лингвистическими исследованиями глобальной синтаксической структуры и ее коммуникативных проблем.

В ведущих научных центрах мира на повестку дня выдвигаются исследования по изменению научных парадигм в лингвистике, которые требуют не только культурного подхода к вопросам речи в эпоху глобализации, но и теоретического подхода к ее фундаментальным проблемам. В настоящее время, когда язык рассматривается как форма межнационального и межкультурного общения общества, выражение бытия в речи, характерное для него, рассмотрение вопросов проявления речи в человеке через призму современной лингвистики и поиск решений его вопросов посредством этого подхода стали одними из неотложных задач. При этом значительно возросла потребность в освещении текста и его вопросов в коммуникативных целях человечества в условиях современного мира.

В условиях стремительного развития интеграции реальной жизни и науки в нашей стране сегодня определяются ключевые факторы создания фундамента Третьего Ренессанса в Узбекистане. «В настоящее время в нашей стране происходит ещё один важный процесс Возрождения. Поэтому слова «Новый Узбекистан» и «Третий Ренессанс» звучат в нашей жизни взаимосвязанно и гармонично, вдохновляя наш народ на великие цели»<sup>5</sup>. Это подтверждается достижениями науки и общества в социальных, экономических, культурных и других сферах.

---

<sup>5</sup> Ответы Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на вопросы главного редактора газеты «Янги Узбекистон» Салима Дониёрова «Новый Узбекистан становится страной демократических преобразований, широких возможностей и практических действий», [https://uza.uz/uz/posts/yanagi\\_293336.17.08.2021](https://uza.uz/uz/posts/yanagi_293336.17.08.2021).

Исходя из этого, в лингвистике, среди исследований, пользующихся высокой потребностью, особенно выделяется необходимость проведения фундаментальных теоретических и прикладных исследований в узбекском языкознании по формированию глобальных синтаксических структур и их предикативности, поскольку по данному вопросу пока недостаточно выполнено исследований. Данное исследование приобретает особую актуальность благодаря тому, что оно посвящено изучению формирования глобальных синтаксических структур и анализу предикативности в них на материале английского и узбекского языков в сравнительном аспекте, что является неотъемлемой частью мировой лингвистики.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, обозначенных в Указах Президента Республики Узбекистан №УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года, № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» от 20 апреля 2017 года, № ПП-3151 «О мерах по дальнейшему расширению участия отраслей и сфер экономики в повышении качества подготовки специалистов с высшим образованием» от 27 июля 2017 года, №ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах» от 5 июня 2018 года, №ПП-5117 «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан» от 19 мая 2021 года, постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан №292 «О мерах по организации деятельности вновь созданных научных организаций Академии наук Республики Узбекистан» от 18 мая 2017 года, №610 «О мерах по дальнейшему совершенствованию качества преподавания иностранных языков в образовательных учреждениях» от 11 августа 2017 года, № 816 «Об обеспечении высших образовательных учреждений учебной литературой» от 10 октября 2018 года, а также других нормативно-правовых документов относительно данной сферы деятельности.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологии республики I. “Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информатизированного общества и демократического государства”.

**Степень изученности проблемы.** В исследованиях таких лингвистов, как Л. Блумфилд (L. Blumfield), Т.А. ван Дейк (W. Dike), Е. Курилович (J.Kurilowicz), Г. Паул (H. Paul) Ч. Хоккет (Ch. Hocquette), Н. Хомский (N.Chomskiy), К. Гаузенблас (K. Hausenblas) и многих других, освещены

формально-структурные, семантико-синтаксические и функциональные аспекты формирования глобальных синтаксических структур и роли предикативного анализа в структуре речи в лингвистике и как явление, специфичное для текста<sup>6</sup>.

